

02-11/80
25.11.2024

“TASDIQLAYMAN”
Ilmiy-ekspert kengashi raisi
T. Kuziyev
2024-yil “ 25 ” noyabr



**Ilmiy-ekspert kengashining yig‘ilish
BAYONNOMASI № 19**

2024-yil 1-noyabr

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: T.Kuziyev – Ilmiy-ekspert kengashi raisi;

Qatnashdilar: Ilmiy-ekspert kengashi a‘zolari: I.Yusupov,
F.Usmonov, X.Sultonov, M.Mumin-Axunova,
Sh.Pidayev onlayn qatnashdi M.Saidov hamda
B.Raxmanov

Qatnashmaganlar: A.Kuranov.

Mas’ul kotib: X.Haydarov.

KUN TARTIBI:

1. Samarqand shahar, “Abdurahmon Jomiy” ko‘chasi, 106-manzildagi “Turar joy” binosini moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatidan chiqarish taklifi.

Asos: Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasining 30.09.2024-yil № 01-03/2036-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

2. Buxoro shahar, “Havzi Qozi Kalon” ko‘chasi, 11-manzilda bir qavatli turar joy binosini qayta qurish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 14.10.2024-yil № 04-KM/2020-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

3. Buxoro shahar, “Xo‘ja Porso” ko‘chasi, 10 (C)-manzilda ikki qavatli turar joy binosini qayta qurish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 15.10.2024-yil № 04-KM/2036-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

4. Buxoro shahar, “Bahovuddin Naqshband” ko‘chasi, 87B, 87/2, 87/4 va 89/1-manzillarda ikki qavatli turar joy binosini qurish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 11.10.2024-yil 04-KM/2012-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

5. Xorazm viloyati, Xiva shahar “Po‘stindo‘z” ko‘chasi, 34-manzildagi ikki qavatli noturar joy binosini qurish loyihasi.

Asos: Xorazm viloyati Madaniy meros boshqarmasining 16.10.2024-yil № 180/1-24-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

6. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, “ Mixail Glinka” ko‘chasi, 9-manzilda joylashgan “3 qavatli ma‘muriy bino”ni madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatidan chiqarish taklifi.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 18.10.2024-yil № 01-02/737-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

7. Buxoro viloyati Kogon tumanida joylashgan “Bahovuddin Naqshband” ziyoratgohi hududida rekonstruksiya, qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini olib borish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 17.10.2024-yil 05-AT/2048-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

8. Buxoro shahar, “Haqiqat” ko‘chasida joylashgan yengil konstruksiyali ekokafe binosini keronstruksiya qilish bo‘yicha taklif loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 09.10.2024-yil 04-KM/1991-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

9. Namangan viloyati, Namangan shahar, “Kosonsoy” ko‘chasida joylashgan “Bo‘zchi Mozor” arxeologiya yodgorligi hududida noturar joy binosini qurish loyihasi.

Asos: Namangan viloyati madaniy meros boshqarmasining 21.10.2024-yil 586-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

10. Navoiy viloyati, Karmana tumani, “Sardoba” MFY hududida joylashgan “Sardoba Malikrabort” madaniy meros obyektini restavratsiya va qayta tiklash bo‘yicha loyiha.

Asos: Navoiy viloyati madaniy meros boshqarmasining 15.10.2024-yil № 01-02/468-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

11. Buxoro shahar, “Mehtar Ambar” ko‘chasida joylashgan “Kulita karvonsaroyi” madaniy meros obyektining ochiq qismini qor va yomg‘irdan saqlash bo‘yicha yengil konstruksiyali ayvon qurish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 14.10.2024-yil 04-KM/2019-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

12. Buxoro shahar, “Boboyi Nonkash” ko‘chasi, 1-manzildagi turar joy binosini qayta qurish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 14.10.2024-yil 04-KM/2022-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

13. Buxoro shahar, “Afrosiyob” ko‘chasi (20:12:01:16:01:698 kadastr raqami) ikki qavatli noturar va turar-joy binosini qurish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 14.10.2024-yil 04-KM/2021-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

14. Buxoro shahar, “Turki Jandi” ko‘chasi, 176-manzilda ikki qavatli turar joy binosini qurish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 03.10.2024-yil 04-KM/1967-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

15. Buxoro shahar, “Mirdo‘stim” ko‘chasi, 106-manzilda ikki qavatli turar joy binosini qurish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 04.10.2024-yil 04-KM/1972-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

16. Buxoro shahar, “Samarqand” ko‘chasi, 192A-manzilda ikki qavatli turar joy binosini qurish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 04.10.2024-yil 04-KM/1973-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

17. Buxoro shahar, “Gavkushon” ko‘chasi, 22-manzilda ikki qavatli turar-joy binosini qurish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 09.10.2024-yil 04-KM/1990-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

18. Samarqand shahar, “Xoji Abdulaziz Abdurasulov” ko‘chasi, 54-manzilda ikki qavatli turar joy binosini qurish loyihasi.

Asos: Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasining 18.10.2024-yil № 01-03/2293-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

19. Buxoro viloyati, Qorako‘l tumani, “Qozon” MFY hududida joylashgan “Xo‘jalar masjidi” binosini moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritish taklifi.

Asos: Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 07.10.2024-yil 03-KM/1982-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

20. Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori talablari asosida Toshkent viloyati hududida joylashgan ilovada ko‘rsatilgan **9 ta** moddiy madaniy meros obyektlarini ijaraga berilish ro‘yxatini tasdiqlash.

Asos: Toshkent viloyati madaniy meros boshqarmasining 14.06.2024-yil № 01-02/174-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

21. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, “Shota Rustaveli” va “Bobur” ko‘chalari kesishmasida joylashgan “Pushkin” haykali xiyoboni hududini obodonlashtirish, o‘rindiqlar va chiqindi qutilarini o‘rnatish, “work-out”, sport va bolalar maydonchalari barpo etish, velosiped yo‘laklarini tashkil etish, irrigatsiya, tungi yoritish tizimlarini qurish va ta‘mirlash bo‘yicha tayyorlangan loyiha.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 04.10.2024-yil № 01-02/682-xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

22. Andijon viloyati, Baliqchi tumani, “O‘rmonbek” MFY hududida joylashgan “Xotira xiyoboni, noma‘lum jangchi haykali” monumental san‘at yodgorligi muhofaza tegrasida noturar joy binolarni qurish loyihasi.

Asos: Andijon viloyati madaniy meros boshqarmasining 21.10.2024-yil № 0106/189-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

23. Buxoro shahar, “Mirzo G‘ofur” ko‘chasi, 66-manzilda uch qavatli turar joy binosini qurish hamda “Ibn Sino” ko‘chasida joylashgan noturar joy bino-inshootlarni rekonstruksiya qilish loyihasi.

Asos: Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 28.10.2024-yil 2098-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

24. Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Istiqlol ko‘chasi, 81-manzilda joylashgan “Tarixiy yodgorlik binosi” (Pravoslav cherkovi) madaniy meros obyektini (yodgorlikning yordamchi binosi, kadastr hujjatidagi 0002 liter) moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari davlat kadastriga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha taklif.

Asos: Farg‘ona viloyati madaniy meros boshqarmasining 29.10.2024-yil 01-10/493-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

**Kun tartibidagi masalalarni atroflicha o‘rganib, muhokama qilib,
Ilmiy-ekspert kengashi**

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” 2001-yil 30-avgustdagi 269-II-son qonuni 14-moddasida moddiy madaniy meros obyektini moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish, agar obyekt **jisman to‘la yo‘qotilgan bo‘lsa yoki moddiy madaniy meros obyektini sifatidagi o‘z qimmatini yo‘qotgan bo‘lsa**, tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Samarqand shahar, “Abdurahmon Jomiy” ko‘chasi, 106-manzildagi “Turar joy” binosini madaniy meros obyektini moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatidan chiqarish amaldagi qonunchilik normalariga zid ravishda kiritilganligi tufayli rad etilsin.

Mazur obyektini tarixiy asl ko‘rinishiga moslashtirgan holda hamda deraza romlarini asl masshtabiga keltirgan holda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi 295-son qarori bilan belgilab qo‘yilgan mezonlar asosida loyiha qayta ishlab chiqib, Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

2. Buxoro shahar, “Havzi Qozi Kalon” ko‘chasi, 11-manzilda bir qavatli turar joy binosini qayta qurish loyihasi;

-loyihalashtirilgan binoning tashqi ko‘rinishi Buxoro an‘anaviy o‘rta asrlar me‘morchiligiga mos ko‘rinishda ishlab chiqilganligini inobatga olib, loyihalashtirilgan yer maydon bo‘yicha arxeologik xulosani olish sharti bilan ma‘qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklansin.

3. Buxoro shahar, “Xo‘ja Porso” ko‘chasi, 10 (C)-manzilda ikki qavatli turar joy binosini qayta qurish loyihasi;

-loyihalashtirilgan bino Buxoro an‘anaviy arxitektura ko‘rinishiga mos holda ishlab chiqilganligini inobatga olib, loyihalashtirilgan bino ikki qavat, balandligi yer sathidan 6,60 metrdan oshirmaslik;

-loyihalashtirilgan binoning ikkinchi qavat ustidagi hech qanday qurilma qurilmaslik sharti bilan ma‘qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklansin.

4. Buxoro shahar, “Bahovuddin Naqshband” ko‘chasi, 87B, 87/2, 87/4 va 89/1-manzillarda ikki qavatli turar joy binosini qurish loyihasi;

-Ilmiy-ekspert kengashning joriy yil 10-11-iyundagi 10-son bayoni 1-bandida berilgan tavsiyalar inobatga olinmay qoldirilganligi tufayli loyiha rad etilsin.

5. Xorazm viloyati, Xiva shahar “Po‘stindo‘z” ko‘chasi, 34-manzildagi ikki qavatli noturar joy binosini qurish loyihasi;

-loyihalashtirilgan bino tashqi ko‘rinishi Xiva an‘anaviy me‘morchiligi an‘analariga mos emasligi tufayli loyiha ikki qavatli, yer sathidan umumiy

balandligi 7,20 metrdan oshirmagan holda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi 295-son qarori bilan belgilab qo'yilgan mezonlar asosida qayta ishlab chiqilib, Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

6. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" 2001-yil 30-avgustdagi 269-II-son qonuni 14-moddasida moddiy madaniy meros obyektini moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish, agar obyekt **jisman to'la yo'qotilgan bo'lsa yoki moddiy madaniy meros obyektini sifatidagi o'z qimmatini yo'qotgan bo'lsa**, tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, "Mixail Glinka" ko'chasi, 9-manzilda joylashgan "3 qavatli ma'muriy bino" madaniy meros obyektini moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatidan chiqarish taklifi amaldagi qonunchilik normalariga zid ravishda kiritilganligi tufayli rad etilsin.

7. Buxoro viloyati, Kogon tumanida joylashgan "Bahovuddin Naqshband" ziyoratgohi hududida rekonstruksiya, qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini olib borish loyihasi;

-loyihalashtirilayotgan yog'och soyabon ustunlar soni va ko'rinishi "Bahovuddin Naqshband" ziyoratgohi hududida joylashgan madaniy meros obyektlarining tarixiy davriga mos emasligi, shuningdek, ustunlar orasida masofa qisqa ekanligi, asosiy loyihadan tashqari bajarilishi ko'zda tutilgan qo'shimcha ishlar bo'yicha nuqson dalolatnomasi mavjud emasligi tufayli rad etilsin.

8. Buxoro shahar, "Haqiqat" ko'chasida joylashgan yengil konstruksiyali ekokafe binosini keronstruksiya qilish bo'yicha taklif loyihasi;

-loyihalashtirilgan bino Buxoro an'anaviy me'morchilik an'alariga mos ekanligini inobatga olib ma'qullansin.

9. Namangan viloyati, Namangan shahar, Kosonsoy ko'chasida joylashgan "Bo'zchi Mozor" arxeologiya yodgorligi hududida noturar joy binosini qurish loyihasi;

-loyihalashtirilgan yer maydon bo'yicha arxeologik xulosani olgan holda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi 295-son qarori bilan belgilab qo'yilgan mezonlar asosida qayta ishlab chiqilib, Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

10. Navoiy viloyati, Karmana tumani, "Sardoba" MFY hududida joylashgan "Sardoba Malikrabort" madaniy meros obyektini restavratsiya va qayta tiklash loyihasi;

-loyihalashtirilgan oynali to'sin "Sardoba Malikrabort" madaniy meros obyektining tarixiy, me'moriy ko'rinishiga mos emasligi tufayli mazkur oynali to'sinni qurmaslik sharti bilan ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan Navoiy viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklansin.

11. Buxoro shahar, "Mehtar Ambar" ko'chasida joylashgan "Kulita karvonsaroyi" madaniy meros obyektining ochiq qismini qor va yomg'irdan saqlash bo'yicha yengil konstruksiyali ayvon qurish loyihasi;

-loyihalashtirilgan yengil konstruksiyali ayvon “Kulita karvonsaroyi” madaniy meros obyektining tashqi arxitektura va me’moriy ko‘rinishiga mos emasligi tufayli loyiha rad etilsin.

12. Buxoro shahar, “Boboyi Nonkash” ko‘chasi, 1-manzildagi turar-joy binosini qayta qurish loyihasi:

- bino loyihasini ikki qavatli qilib, balandligini yer sathidan 6,60 metrdan oshirmasdan, tashqi me’moriy ko‘rinishini Buxoro an’anaviy me’morchiligiga moslashtirib, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi 295-son qarori bilan belgilab qo‘yilgan mezonlar asosida qayta ishlab chiqib, Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

13. Buxoro shahar, “Afrosiyob” ko‘chasi (20:12:01:16:01:698 kadastr raqami) ikki qavatli noturar va turar-joy binosini qurish loyihasi;

-loyihalashtirilgan bino tashqi rangini Buxoro an’anaviy me’morchiligida qo‘llaniladigan rangga moslashtirish sharti bilan ma’qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklansin.

14. Buxoro shahar, “Turki Jandi” ko‘chasi, 176-manzilda ikki qavatli turar joy binosini qurish loyihasi:

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi 295-son qarori bilan belgilab qo‘yilgan mezonlar asosida loyiha qayta ishlab chiqilib, Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

Loyiha qayta kiritilish jarayonida bino yer maydoni bo‘yicha arxeologiya xulosasini olish, loyihalashtirilgan binoning ikkinchi qavatidagi ayvonnini (balkon) loyihadan chiqarib tashlash, binoning qavatlarini ikki qavatdan oshirmaslik hamda balandligini yer sathidan 6,60 metrdan oshirmaslik talablari inobatga olinsin.

15. Buxoro shahar, “Mirdo‘stim” ko‘chasi, 106-manzilda ikki qavatli turar joy binosini qurish loyihasi:

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi 295-son qarori bilan belgilab qo‘yilgan mezonlar asosida loyiha qayta ishlab chiqilib, Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

Loyiha qayta kiritilish jarayonida bino yer maydoni bo‘yicha arxeologiya xulosasini olish, binoning tashqi ko‘rinishini Buxoro an’anaviy me’morchiligiga moslashtirish, binoning qavatlarini ikki qavatdan oshirmaslik hamda balandligini yer sathidan 6,60 metrdan oshirmaslik talablari inobatga olinsin.

16. Buxoro shahar, “Samarqand” ko‘chasi, 192A-manzilda ikki qavatli turar-joy binosini qurish loyihasi:

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi 295-son qarori bilan belgilab qo‘yilgan mezonlar asosida loyiha qayta ishlab chiqilib, Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

Loyiha qayta kiritilish jarayonida bino yer maydoni bo‘yicha arxeologiya xulosasini olish, binoning tashqi ko‘rinishini Buxoro an’anaviy me’morchiligiga moslashtirish, binoning qavatlarini ikki qavatdan oshirmaslik hamda balandligini yer sathidan 6,60 metrdan oshirmaslik talablari inobatga olinsin.

17. Buxoro shahar, “Gavkushon” ko‘chasi, 22-manzilda ikki qavatli turar-joy binosini qurish loyihasi;

-loyihalashtirilgan bino yer maydoni bo‘yicha arxeologiya xulosasini olish, binoning qavatlarini ikki qavatdan (balandligini yer sathidan 6,60 metrdan) oshirmaslik sharti bilan ma’qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklansin.

18. Samarqand shahar, “Xoji Abdulaziz Abdurasulov” ko‘chasi, 54-manzilda ikki qavatli turar-joy binosini qurish loyihasi;

-loyihalashtirilgan bino atrofidagi hududda shakllangan va mavjud me’moriy ko‘rinishga mos va uyg‘un ekanligini inobatga olib, loyihadagi ishlarni arxeologiya mutaxssisi nazorati ostida amalga oshirish sharti bilan ma’qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklansin.

19. Buxoro viloyati, Qorako‘l tumani, “Qozon” MFY hududida joylashgan “Xo‘jalar masjidi” binosi hududida bugungi kunda yangi masjid binosi qurilganligi va ushbu eski masjid binosining tarixiy ahamiyati va me’moriy bezaklari mavjud emasligi tufayli “Xo‘jalar masjidi” binosi moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritish taklifi rad etilsin.

20. Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori talablari asosida Toshkent viloyati hududida joylashgan ilovada ko‘rsatilgan **8 ta** moddiy madaniy meros obyektlarining ijaraga berilish ro‘yxatini tasdiqlash taklifi ma’qullansin.

21. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, “Shota Rustaveli” va “Bobur” ko‘chalari kesishmasida joylashgan “Aleksandr Pushkin” haykali xiyobonini obodonlashtirish, o‘rindiqlar va chiqindi qutilarini o‘rnatish, “work-out”, sport va bolalar maydonchalari barpo etish, velosiped yo‘laklarini tashkil etish, sug‘orish, tungi yoritish tizimlarini qurish va ta’mirlash bo‘yicha tayyorlangan loyiha;

-atrofdagi obodonlashtirish ishlari loyihalashtirilgan hududda joylashgan favvoraning birlamchi asl ko‘rinishini saqlab qolish, “Aleksandr Pushkin” haykaliga zarar yetkazmaslik va bufer zonasini saqlab qolish sharti bilan ma’qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklansin.

22. Andijon viloyati, Baliqchi tumani, “O‘rmonbek” MFY hududida joylashgan “Xotira xiyoboni, Noma’lum jangchi haykali” monumental san’at asarining muhofaza tegrasida noturar-joy binolarni qurish loyihasi yodgorlikning ko‘rinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaslik, uni to’sib qo‘ymaslik sharti bilan ma’qullansin.

23. Buxoro shahar, “Mirzo G‘ofur” ko‘chasi, 66-manzilda uch qavatli turar joy binosini qurish hamda “Ibn Sino” ko‘chasida joylashgan noturar joy bino-inshootlarni rekonstruksiya qilish loyihasi;

-loyihalashtirilgan bino atrofidagi hududda shakllangan va mavjud me'moriy ko'rinishiga mos va uyg'un ekanligini inobatga olib, loyihalashtirilgan bino balandligini yon atrofdagi mavjud binolar balandligidan oshirmaslik sharti bilan ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklansin.

24. Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Istiqlol ko'chasi, 81-manzilda joylashgan "Tarixiy yodgorlik binosi" (Pravoslav cherkovi) madaniy meros obyektining tarixiy, me'moriy ko'rinishini saqlash maqsadida (yodgorlikning yordamchi binosi, kadastr hujjatidagi 0002 liter) moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari davlat kadastriga o'zgartirish kiritish bo'yicha taklifi ma'qullansin.

Farg'ona viloyati madaniy meros boshqarmasi ushbu madaniy meros obyektini moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari davlat kadastriga o'zgartirish kiritish choralarini ko'rsin.

Kengash mas'ul kotibi

 **X. Haydarov**